Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Xoliddin Shomuxammadov – o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: shomukhammadov@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0001-6739-0830

SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA FITONIM KOMPONENTLI BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sadriddin Ayniy asarlarida uchraydigan fitonim komponentli frazeologik birliklar lingvokulturologik, semantik va stilistik jihatdan kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘simlik nomlari asosida shakllangan obrazlar, ularning konseptual mazmuni, ichki semantik tuzilishi hamda milliy-madaniy xususiyatlari aniqlanadi. Muallif tomonidan qo‘llanilgan fitonimlarning badiiy matndagi o‘rni, ularning obrazlilik darajasi va ifoda imkoniyatlari tizimli ravishda yoritiladi. Shuningdek, ushbu birliklarning konnotativ ma’nolari, ularning madaniy kod sifatidagi funksiyalari ham tahlil doirasiga kiritiladi. Maqolada fitonim komponentli frazeologizmlarning kognitiv va kommunikativ funksiyalari ochib berilib, ularning matn mazmunini shakllantirishdagi roli asoslab beriladi. Natijada ushbu birliklar milliy tafakkur va madaniyatni aks ettiruvchi muhim til vositasi sifatida baholanadi hamda ularning lingvistik xususiyatlari umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: fitonim, lingvokulturologiya, frazeologizm, metafora, konsept, semantika.

Kholiddin Shomukhammadov – teacher
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

LINGUOCULTURAL FEATURES OF PHYTONYMIC COMPONENT UNITS IN THE WORKS OF SADRIDDIN AYNIY

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of phraseological units with phytonym components found in the works of Sadriddin Ayni from linguocultural, semantic, and stylistic perspectives. The study identifies images formed through plant names, revealing their conceptual content, internal semantic structure, and national-cultural characteristics. Particular attention is paid to the role of phytonyms in literary texts, including their figurative potential and expressive capacity. The research also examines the connotative meanings of these units and their function as cultural codes within the text. Furthermore, the cognitive and communicative functions of phytonym-based phraseological units are explored, highlighting their contribution to meaning construction and text organization. The findings demonstrate that such linguistic units serve as important tools for reflecting national worldview and cultural identity, while also enriching the stylistic and semantic layers of literary discourse through their symbolic and associative meanings.

Kalit so‘zlar: fitonim, lingvokulturologiya, frazeologizm, metafora, konsept, semantika.

Холиддин Шомухаммадов – преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФИТОНИМИЧЕСКИХ КОМПОНЕНТНЫХ ЕДИНИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САДРИДДИНА АЙНИЯ

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ фразеологических единиц с фитонимным компонентом, встречающихся в произведениях Садриддина Айни, с лингвокультурологической, семантической и стилистической точек зрения. В исследовании выявляются образы, сформированные на основе названий растений, раскрываются их концептуальное содержание, внутренняя семантическая структура и национально-культурные особенности. Особое внимание уделяется роли фитонимов в художественном тексте, их образности и выразительным возможностям. Также анализируются коннотативные значения данных единиц и их функционирование как культурных кодов. Кроме того, рассматриваются когнитивные и коммуникативные функции фразеологизмов с фитонимным компонентом, их вклад в формирование смысла и структуры текста. В результате делается вывод о том, что данные единицы являются важным средством отражения национального мышления и культуры.

Ключевые слова: фитоним, лингвокультурология, фразеологизм, метафора, концепт, семантика.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini o‘rganish faqat struktur yondashuv bilan chegaralanib qolmay Kubryakova, E. S. (2004), balki ularning kognitiv, semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashni ham talab etadi. Ayniqsa, leksik-semantik tizimning muhim qatlami bo‘lgan fitonimlar (Maslova, 2001) (o‘simlik nomlari) milliy tafakkur, madaniyat va ijtimoiy tajribaning til orqali ifodalanishida muhim rol o‘ynaydi.

Fitonim komponentli birliklar, xususan, frazeologizmlar, maqollar va metaforalar badiiy matnda obrazlilikni kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular orqali inson va tabiat o‘rtasidagi konseptual aloqalar, estetik qarashlar hamda xalqona dunyoqarash namoyon bo‘ladi.

Sadriddin Ayniy asarlari Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim manba bo‘lib, unda fitonim komponentli birliklar keng qo‘llanadi. Mazkur birliklar nafaqat nominativ, balki chuqur semantik va ekspressiv vazifani ham bajaradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - Ayniy asarlarida uchraydigan fitonim komponentli birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, ularning semantik tuzilishi va stilistik funksiyasini tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Fitonim komponentli birliklarni o‘rganish lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika va frazeologiya doirasida amalga oshiriladi. Ushbu birliklar til tizimida nafaqat nominativ, balki madaniy va konseptual mazmunni ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. Jahon olimlaridan onomastik yondashuv A.Superanskaya ishlari orqali asoslanadi (Superanskaya, 1973). Lingvokulturologik va kognitiv nazariyalar V.Maslova, V.Teliya hamda G.Lakoff va M.Johnson ishlari orqali rivojlantirilgan Maslova (2001) bo‘lib, fitonimlarni konseptual model sifatida talqin qilish imkonini beradi. Fitonimlarning poetik va estetik xususiyatlarini o‘zbek olimlari tomonidan ham o‘rganilgan bo‘lib, Z.Djalilova ularning inson sifatlarini obrazli ifodalashdagi rolini asoslab bergan (Jalilova, 2022). N.Pazlitdinova esa fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlarini tizimli tahlil qilib, ularning denotativ va konnotativ ma’nolarini ajratadi. Badiiy matndagi stilistik funksiyalar M.Usmonova tomonidan o‘rganilib, fitonimlarning obrazlilik va ekspressivlik yaratishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- deskriptiv metod;
- kontekstual tahlil;
- semantik tahlil;
- lingvokulturologik metod;

• kognitiv tahlil.

Mazkur yondashuvlar uyg‘unligi fitonim komponentli birliklarni kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, fitonim komponentli birliklar Sadriddin Ayniy asarlarida ko‘p qatlamli semantik va lingvokulturologik mazmunga ega. Ular orqali muallif nafaqat obrazli tasvir yaratadi, balki xalqning ijtimoiy tajribasi va mentalitetini ham aks ettiradi. Fitonimlarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning metaforik modellashuv vositasi sifatida namoyon bo‘lishidir. Masalan, “daraxt novdasiday qalam qilish” birikmasida o‘simlik elementi inson tanasining mo‘rtligi va harakatning keskinligini ifodalashga xizmat qiladi. Buniq asardan olingan quyidagi misolda ham ko‘rishimiz mumkin: “Azizullo Hisor urushda Amirning “galabotur” navkarlari qatorida hisorliklar safida ot minib hujum qilgan, har bir qilich urishda o‘n-o‘n ikki nafarni daraxt novdasiday qalam qilib chopib tashlagan bir qahramon edi” (Ayni, 2023). Bu holat George Lakoff va Mark Johnson tomonidan asoslangan konseptual metafora nazariyasiga mos keladi, ya’ni abstrakt tushunchalar konkret tabiat obrazlari orqali ifodalanadi.

Shuningdek, fitonimlar estetik idealni ifodalash vositasi sifatida ham faol qo‘llanadi. “Olmaday yuz” birikmasi inson go‘zalligini tabiiy va milliy mezon asosida talqin etadi. Bu esa Zebo Djalilova tadqiqotlarida qayd etilganidek, fitonimlarning inson sifatlarini poetik kodlashdagi rolini tasdiqlaydi. Quyidagi she’riy baytlarda “olmaday yuz” frazeologik birligi ham fikrimizni asoslab keladi:

Olma raxishlab otdim, dod-ey, tegdimi sizga?

Olma tekkan joyingizni ko‘rsating bizga!

Xoh ko‘rsating, xoh ko‘rsatmang, ixtiyor sizda.

Biz hammamiz qul bo‘lganmiz olmaday yuzga (Ayni, 2023).

Fitonim komponentli birliklarning yana bir muhim jihati – ularning paremiologik va didaktik funksiyasidir. “Uzumni yegin-u, bog‘ini surishtirma” (Ayni, 2023)kabi birliklarda xalqona donishmandlik va pragmatik tafakkur ifodalanadi. Bu holat V. Teliya tomonidan frazeologizmlarning madaniy semantika tashuvchisi sifatidagi talqiniga mos keladi (Teliya, 1996).

Bundan tashqari, fitonimlar kognitiv model sifatida sabab-natija munosabatlarini ifodalashda ham faol ishtirok etadi. “Ildiz – daraxt – meva” modeli rivojlanish va natija konseptini aks ettirib, universal tafakkur sxemasini namoyon etadi. Bu jihat N.Pazlitdinova tomonidan fitonimlarning semantik tizimda tutgan o‘rni haqidagi qarashlar bilan hamohangdir (Pazlitdinova, 2018).

Shuningdek, fitonim komponentli birliklar badiiy matnda emotsional-ekspressiv vosita sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “somonday tutash” ifodasi orqali kuchli hissiy holat va ichki dramatizm ifodalanadi. Bu esa M.Usmonova tomonidan fitonimlarning stilistik funksiyalari haqidagi ilmiy xulosalarini tasdiqlaydi (Usmonova, 2022).

Umuman olganda, fitonim komponentli birliklar badiiy matnda konseptual, estetik va emotsional qatlamlarni uyg‘unlashtiruvchi murakkab lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning tahlili til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi.

NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar natijasida Sadriddin Ayniy asarlarida fitonim komponentli birliklar tizimli va funksional jihatdan muhim lingvistik qatlamni tashkil etishi aniqlandi. Birinchidan, fitonim komponentli birliklar badiiy matnda metaforik va obrazli tasvir yaratishning asosiy vositalaridan biri ekanligi belgilandi. Xususan, “daraxt novdasi”, “olma”, “somon” kabi birliklar orqali inson holati, tashqi ko‘rinishi va hissiy kechinmalari konkret obrazlar orqali ifodalangan. Ikkinchidan, fitonimlar estetik va madaniy konseptlarni ifodalovchi birliklar sifatida namoyon bo‘ldi. “Olmaday yuz” kabi birikmalar milliy estetik idealni aks ettiruvchi lingvokulturologik model sifatida talqin qilindi. Uchinchidan, fitonim komponentli birliklar orqali xalqona donishmandlik va paremiologik tajriba ifodalanishi aniqlandi. “Uzumni yegin-u, bog‘ini surishtirma” kabi birliklar pragmatik tafakkur va ijtimoiy tajribani aks ettiradi. To‘rtinchidan, tadqiqot davomida fitonimlar asosida shakllangan kognitiv modellar aniqlanib, ular quyidagicha tizimlashtirildi:

• ildiz → daraxt → meva (rivojlanish va natija modeli);

• o‘simlik → inson (estetik va fiziologik o‘xshatish);

• o‘simlik → ijtimoiy tizim (barqarorlik yoki beqarorlik modeli);

• o‘simlik → hissiy holat (emotsional ekspressiya modeli).

Beshinchidan, fitonim komponentli birliklar emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytiruvchi stilistik vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa, “somonday tutash” kabi birliklar orqali matnda dramatizm va hissiy intensivlik kuchaytirilgan. Natijada, fitonim komponentli birliklar til tizimida nafaqat leksik birlik, balki kognitiv, lingvokulturologik va stilistik funksiyalarni birlashtiruvchi kompleks birlik sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslandi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari Sadriddin Ayniy asarlarida fitonim komponentli birliklar tilning muhim lingvokulturologik qatlamini tashkil etishini ko‘rsatdi. Ushbu birliklar orqali muallif badiiy matnda obrazlilikni kuchaytirish bilan birga, xalqning madaniy tajribasi va milliy tafakkurini ham ifodalagan. Tahlillar shuni tasdiqladiki, fitonimlar nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki metaforik, estetik, kognitiv va ekspressiv funksiyalarni ham amalga oshiradi. Xususan, ular orqali inson sifatlari, ijtimoiy munosabatlar va hissiy holatlar tabiat obrazlari asosida konseptual tarzda ifodalanadi. Shuningdek, fitonim komponentli birliklar xalqona donishmandlik va paremiologik tajribani aks ettirib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etadi. Ular asosida shakllangan kognitiv modellar (ildiz–daraxt–meva va boshqalar) inson tafakkurining universal va milliy xususiyatlarini ochib beradi. Fitonim komponentli birliklar badiiy matnda lingvopoetik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etib, tilning semantik chuqurligini va madaniy boyligini namoyon qiladi. Ularni lingvokulturologik yondashuv asosida o‘rganish tilshunoslik, tarjimashunoslik va matn tahlili uchun muhim nazariy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Ayni, S. (2023). *Eski maktab*. Yoshlar matbuoti.
2. Jalilova, Z. B. (2022). Ingliz va o‘zbek she’riyatida shaxs sifatlarining fitonimlar vositasida poetik ifodalanish xosliklari (PhD avtoreferat). Buxoro.
3. Kubryakova, E. S. (2004). *Yazyk i znaniye*. Moskva.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Maslova, V. A. (2001). *Lingvokulturologiya*. Moskva: Akademiya.
6. *O‘zbek tili izohli lug‘ati* (2-jild). (2022). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
7. Pazlitdinova, N. Z. (2018). O‘zbek tili fitonimlarining leksik-semantik xususiyatlari (PhD avtoreferat). Farg‘ona.
8. Rahmatullayev, Sh. (1992). *O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati*. Toshkent.
9. Shermuhamedova, N. (2005). *Falsafa va fan metodologiyasi*. Toshkent.
10. Shomukhammadov, K. (2024). Translation of cultural words from Uzbek into English. *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 354–357
11. Superanskaya, A. V. (1973). *Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo*. Moskva: Nauka.
12. Teliya, V. N. (1996). *Russkaya frazeologiya*. Moskva.
13. Usmonova, M. S. (2022). Alisher Navoiy asarlaridagi fitonimlarning leksik-semantik va stilistik tadqiqi (PhD avtoreferat). Jizzax.